

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/04.06.2020.Ped 70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

RAVSHANOVA MUHAYYO MAXMANAZAROVNA

TALABALARDA EKONOMETRIK KOMPETENSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Ekonometrika fani misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari).

PEDAGOGIKA FANLARI bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi–2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna

Talabalarda ekonometrik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Ekonometrika fani misolida)3

Равшанова Мухайё Махманазаровна

Совешенствование методики развития эконометрических компетенций студентов (на примере эконометрики) 23

Ravshanova Mukhayyo Makhmanazarovna

Improving the methodology for developing students' econometric competencies (using the example of econometrics)45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/04.06.2020.Ped 70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

RAVSHANOVA MUXAYYO MAXMANAZAROVNA

TALABALARDA EKONOMETRIK KOMPETENSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Ekonometrika fani misolida)

13.00.02–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4164 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurullayeva Shaxlo O'ktamovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

Qayumova Nasiba Ashurovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Ro'ziyev Zafar Ikromovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2021.Ped.70.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "_____" kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy). (Tel.:(+99875) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti binosi, 217-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "_____" kuni tarqatildi
(2023-yil "_____" dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

R.D. Shodiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

I.B. Kamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
p.f.f.d. (PhD), professor

H.O.Jo'rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi o'rinbosari,
p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning turli jamiyatlarida ta'lim bugungi kunda juda ham muhim rolni o'ynamoqda. Har bir davlatning o'z ta'lim tizimini isloh etish haqida turlicha tasavvur hamda yondashuvlar mavjud. Hozirgi vaqtda turli iqtisodiy holatlarni o'zida namoyon qilayotgan shunday fan tarmoqlari mavjudki, ular metodologiya hamda modellarni o'zida jamlaydi. Mazkur fan sohaslaridan biri - ekonometrik modellashtirishdir. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda ekonometrika metodlaridan foydalanish, jahondagi erishilayotgan iqtisodiy holatlarni bilish, bu hozirgi zamon mutaxassisining ajralmas qismiga aylanib, o'ziga xos bir yo'nalishni tashkil etib bormoqda.

Jahonda ta'lim sohasini rivojlantirishdagi asosiy holatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular bevosita shaxsni shakllantirishdagi ijodiy yondashuvlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan ekonometrika fani iqtisodiy predmetlarning tayanch kurslariga asoslanadi. Dunyodagi ko'pgina davlatlarda xususan, Amerika, Yaponiya, Shvetsariya kabi davlatlarda statistik metodlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladi. Bu fan hali nafaqat umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda, balki oliy ta'lim tizimi o'quv rejalarida ham o'z o'rnini topgan emas.

Mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun birinchi navbatdagi vazifalardan biri - uzoq kelajakda ta'lim tizimida qanday o'zgarishlarni amalga oshirish emas, bu hatto juda muhim bo'lsa ham, bugun, erta va yaqin yillar uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim degan muammo turadi. Respublikamizda yangi ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy munosabatlarni shakllanib borishi – turli sohalarda faoliyat yuritadigan mutaxassislarini sifatli tayyorgarliklarini amalga oshirishni talab etmoqda. Ularni esa mehnat bozorida yuqori darajadagi professional hamda raqobatbardosh bo'lishligini ta'minlash lozim bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ta'lim tizimida kelajakda talab etiladigan yo'nalishlar va ixtisosliklar ro'yxatini keltirish mumkin: xususiy ta'lim tizimini rivojlantirish; ta'limni induallashtirish; mustaqil ta'lim olishni rivojlantirish va uni yetakchi ta'lim shakli darajasiga yetkazish; ijodiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishni amalga oshirish va shu kabilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2020-yil 05-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son, 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-

son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda malakali kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishga doir fundamental tadqiqotlar, pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari hamda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy, integral-pedagogik jihatlari bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan N.N.Azizxodjaeva, R.X.Jo'raev, N.A.Muslimov, O.M.Musurmanova, M.B.Urazova, Ya.U.Ismadiyarov, N.M.Egamberdievalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bog'liq tadqiqotlar I.G.Zaxarova, G.A.Atanov, M.V.Shustova, M.T.Gromkova, M.D.Ilyazova, Ye.I.Isaev, E.M.Korotkov, V.G.Krysko, A.M.Novikov, Yu.P.Pavarenkov, N.A.Rakova, M.I.Stankin, A.I.Chmil, N.V.Uysimbaeva, I.Ugi Glen, P.D.Pavlenok, A.V.Xutorskoy, L.G.Filippova, V.V.Sidorenko, Z.A.Fedoseevalar tomonidan olib borilgan.

Xorijiy davlatlar olimlari A.Cropley, J.Bishop, K.Elizabeth, A.I.Kravchenko, C.K.Pathak, R.S.Yadav, A.Maslou, M.Sharples, S.Hollyforde hamda S.Whiddetlarning ilmiy izlanishlarida talabalarga ta'lim berishning ijtimoiy-iqtisodiy-madaniy, pedagogik jihatlari ochib berilgan. Mazkur tadqiqot ishlarida ekonometrik bilimlar bilan bog'liq bo'lgan turli falsafiy, ijtimoiy, huquqiy va metodologik jihatlarga ham e'tibor qaratilgan.

Bo'lg'usi iqtisodchi, moliyachi va buxgalterlarda ekonometrik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirishning natijador metodik yechimlarini izlash mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejalarini asosida ITD-1. A-1-173 "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ekonometrika fani asosida talabalarda ekonometrik kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

talabalarga ekonometrikadan tushunchalarni mavjudligining hozirgi holatini o'rganish, tadqiqot mavzusiga tegishli nazariy manbalarni atroflicha tahlil etish;

ekonometrikadan taqdim etilayotgan bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini strategik modelini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish;

individual, sinergetik, tizimli-majmuaviy va faoliyatli yondashuvlar asosida ekonometrikadan ta'lim berish metodikasini takomillashtirish;

ta'lim amaliyotida taqdim etilayotgan takomillashtirilgan metodikadan foydalanish, uning samaradorligini tajriba-sinov ishi orqali tekshirib ko'rish.

Tadqiqot obyekti talabalarining ekonometrik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti iqtisodiyot yo'nalishi talabalarida ekonometrikadan ta'lim berishning mazmuni, shakli, metod va vositalari.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqotda qo'yilgan vazifalarni yechish uchun quyidagi: psixologik, pedagogik, ilmiy metodik adabiyotlarni o'rganish hamda ularni atroflicha tahlil qilish; ekonometrikaga tegishli o'quv dasturi, o'quv qo'llanma va darsliklarni o'rganish va tahlil etish; kuzatish, test o'tkazish, pedagog va talabalar bilan suhbatlar o'tkazish; pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va ularning natijalarini tahlil qilish va shu kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda shakllantiriladigan ekonometrik tushunchalarning iqtisodiy jarayonlar va hodisalardagi miqdoriy jihatlar, iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi ekonometrik modellar hamda iqtisodiy jarayonlardagi o'zaro miqdoriy aloqadorliklar kabi asosiy aspektlari tarixiy, dialektik, tizimli-majmuaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

ekonometrikani o'qitish modelining tashkiliy-mazmuniy bloki vaqtli qatorlar modeli bir tenglamali regression modellar hamda foizli stavkalar modellaridan ekonometrikaga doir omillarning korrelyatsion va regression bog'lanishlarini aniqlashtirish, juft omilli va ko'p omilli korrelyatsion bog'lanishlar ustida ishlashga faoliyatli tendensiyaga tayanib o'rgatish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ekonometrik modellashtirishga o'rgatish metodikasi modulli ta'lim texnologiyalarining gnoseologik, konseptual, konstruktiv, verifikatsion aspektlaridagi ekonometrik tenglamalar hamda foizli stavkalar modelini konstruktiv-dinamik loyihalashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda ekonometrik tushunchalarni to'plash, ularning validligini empirik jarayonlarda aniqlash, verifikatsiyalash, ekonometrik diagnostika qilish hamda prognozlash ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi qisqartirilgan, standartlashtirilgan va chuqurlashtirilgan ekonometrik o'quv topshiriqlarini bajarishning reproduktiv, kognitiv va ijodiy darajalariga ko'ra aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiyot yo'nalishi talabalarini ekonometrik bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini takomillashtirish maqsadida "ekonometrikaga kirish" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

ekonometrika fanini o'qitish jarayonini metodik va pedagogik jihatdan takomillashtirish maqsadida talabalarda ekonometrik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi zamonaviy metodlar asosida takomillashtirilgan;

talabalarining ekonometrikaga doir kompetensiyalarni rivojlantirishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan samarali foydalanish maqsadida "ekonometrika fanini mustaqil o'zlashtirishlari uchun" mobil ilova dasutriy vositasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy metodologik, psixologik, pedagogik hamda ilmiy metodik tadqiqotlarning asosiy holatlariga tayanadi. Barcha natijalar pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish hamda olingan ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash orqali o'z tasdig'ini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati iqtisodiy yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalarda ekonometrikadan tahsil berish modelini ishlab chiqilganligi, undan o'quv-bilish jarayonida foydalanishning maqsadga muvofiqligi hamda mazkur ta'lim jarayonini amalga oshirishda didaktik vositalar ta'minotiga bo'lgan talablarni ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalarga ta'lim bilish jarayonida individual, senergitik, tizimli-majmuaviy va faoliyatli yondashuvlardan foydalanilishida hamda taqdim etilayotgan ilmiy-metodik tavsiyalardan ekonometrika bilan uzviy bog'langan fanlarni o'qitish amaliyoti bilan uzviy bog'langanlikda olib borilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. talabalarda ekonometrik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

talabalarda shakllantiriladigan ekonometrik tushunchalarning iqtisodiy jarayonlar va hodisalardagi miqdoriy jihatlar, iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi ekonometrik modellar hamda iqtisodiy jarayonlardagi o'zaro miqdoriy aloqadorliklar kabi asosiy aspektlari tarixiy, dialektik, tizimli-majmuaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilganligiga doir ma'lumotlardan Qarshi davlat universitetida bajarilgan A-1-173-raqamli «Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish» mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori tomonidan berilgan 2023-yil 2-iyundagi 04/2021-son ma'lumotnomasi). Natijada, umummilliy qadriyatlarning talabalar ekonometrik kompetensiyalarini shakllantirish tizimi takomillashtirilgan;

ekonometrikani o'qitish modelining tashkiliy-mazmuniy bloki vaqtli qatorlar modeli bir tenglamali regression modellar hamda foizli stavkalar modellaridan ekonometrikaga doir omillarning korrelyatsion va regression bog'lanishlarini aniqlashtirish, juft omilli va ko'p omilli korrelyatsion bog'lanishlar ustida ishlashga faoliyatli tendensiyaga tayanib o'rgatish asosida takomillashtirilganligiga oid xulosalar "Ekonometrikaga kirish" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-196-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, ekonometrikani o'qitishning innovatsion modeli ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ekonometrik modellashtirishga o'rgatish metodikasi modulli ta'lim texnologiyalarining gnoseologik, konseptual, konstruktiv, verifikatsion aspektlaridagi ekonometrik tenglamalar hamda foizli stavkalar modelini konstruktiv-dinamik loyihalashtirish asosida takomillashtirilganligiga doir xulosalardan Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan Akademik Innovatsiyalar Fondining AIF-2/15 "O'zbekistonda zamonaviy axborot kommunikatsiya

texnologiyalari asosida oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'limni tashkil etish modeli va texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi grant loyihasini bajarishda foydalanilgan (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori tomonidan 2023-yil 22-mayda berilgan № 04/1-2521-sonli ma'lumotnoma). Natijada, zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida ekonometrikani o'qitish metodikasi orqali talabalarning ekonometrik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokomadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 19 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola jumladan, 6 tasi xorijiy jurnallarda 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot muammosining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning amaliy natijalari, ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, metodologik asosi hamda tadqiqot natijalarining ommalashtirilganligi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Talabalarda ekonometrika asosida tashxislash ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan. Mazkur bobda ekonometrikada ilmiy bilishning nazariy aspektlari hamda ta'lim jarayonida foydalaniladigan tizimlar va pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan.

Talabalarga ekonometrikani o'qitish jarayoniga turli yondashuvlar T.Shodiyev, B.Berkinov, O.I.Xaustova, B.G. Ananov, L.S. Vigotskiy, G.Xagen kabi olimlar ilmiy va metodik ishlari misolida tahlil qilib o'tilgan. Dissertatsion tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil etuvchi ilmiy yondashuvlar sifatida individual, sinergetik, tizimli-majmuaviy va faoliyatli yondashuvlar tahlili keltirib o'tilgan.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda zamonaviy mutaxassisidan, xususan iqtisodchilar, buxgalterlar va menejerlar ekonometrik tahlil va prognoz eta olishlari talab etiladi. Bunun uchun bo'lajak mutaxassislarga ekonometrik kompetensiyalarni, yani ekonometrika oid bilim, malaka, ko'nikma va qadriyatlarini shakllantirish masalasi turadi.

Ekonometrikani o'qitish jarayonida metodologik ahamiyatga ega bo'lgan bir qator yondashuvlardan foydalaniladi. Jumladan, Tizimli-majmuaviy yondashuv ilmiy-amaliy faoliyatdagi integratsiya shakli; real voqeliklarni formallashtirish tarzi;

tadqiqotchining natija konstruksiyasini yaratish va tizimli tadqiqot ishlarining metodologik tamoyillari, tushuncha va metodlarning umumlashgan konkret ilmiy talqin etilishini ko'zda tutuvchi faol islohiy pozitsiyasi sifatida gavdalanadi.


Faoliyatli yondashuv shuni nazarda tutadiki, tahsil oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirish, axborotni idrok etish, fahmlash, eslab qolish, qo'llash, umumlashtirish va tizimlashtirish jarayonida sodir bo'ladi, aksincha, olam va obyektlar bilan o'zaro muloqot usullari haqidagi mavjud bilimlarni eslab qolish bilan emas.

Tahsilga yakka tartibdagi yondashuv – alohida o'quvchiga ta'sir ko'rsatishning individual layoqat va qobiliyatlarini har jihatdan to'laqonli ochib berishga mo'ljallangan, uning shaxsiy kamoloti uchun ham, o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun ham optimal, yetarlicha qulay sharoitlarni yaratishni ko'zda tutuvchi didaktik tamoyildir.

Tabaqalashtirilgan yondashuv – alohida o'quvchilar guruhiga ta'sir o'tkazishning ushbu guruhlarining har bir o'quvchisi individual layoqat va qobiliyatlarini har jihatdan to'laqonli ochib berishga mo'ljallangan va guruhlarining har bir o'quvchisi shaxsining kamoloti uchun ham, o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun ham maqbul, yetarlicha qulay sharoitlarni yaratishni ko'zda tutuvchi didaktik tamoyildir.

Talabalarga ekonometrik kompetensiyalarni shakllantirishda sinergetik yondashuvga asoslangan holda ekonometrika fanini o'qitish jarayonida statistik ko'nikmalar va matematik bilimlarga ega bo'lish, ya'ni ekonometrika faniga yondosh fanlar aro malakalari hisobga olinadi. Faoliyatga doir yondashuv ekonometrik ko'nikmalarni shakllanritishga doir mashg'ulotlar davomida talabalarning faoliyatiga tayanilishini nazarda tutadi. Har bir mashg'ulotdagi mashqlar hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq holda talabalarning hayotiy faoliyatga tayyorlashga qaratiladi.

Ta'lim murakkab ko'p qirrali jarayon deb hisoblanadi, bu jarayonni butun mahsulotning o'zaro bog'liq va tartibga solingan elementlari tizimi sifatida ko'rish mumkin, bu tizimda markaziy o'rin o'qituvchi - o'qitish faoliyati va talabalarning faoliyati - o'qish egallaydi. Ushbu faoliyat ushbu ta'lim tizimining maqsadiga qaratilgan.



1-rasm. Taqdim etilayotgan komponentlar asosida metodikani amalga oshirish tartibi.

Metodik tizim ta'lim-tarbiya faoliyatida pedagogik vazifalarni amalga oshirishning modeli sifatida ta'riflangan, ya'ni bu model ta'limning maqsadlari, mazmuni, metod va shakllari, vositalari va rejalashtirilgan pirovard natijalarini o'z ichiga oladi (1-rasm).

Ta'lim (tahsil) jarayoni uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladigan metodik tizimning mavjudligini va izchil rivojlanib borishini ta'min etuvchi tarkibiy-tuzilmaviy komponentlar majmuiga ta'limning maqsadlari, mazmun-mundariyasi, metod va vositalari, tamoyillari, ta'lim shakllari, ta'lim oluvchiga qo'yiladigan talablari va ularning nazorati, ta'lim natijalari singari komponentlar kiradi

Aytish kerakki, pedagogik tizimlarda ta'lim va tarbiya jarayonlari yaxlit, bir butun jarayon sifatida qaraladi. Tizimning bu yaxlitlikni ta'min etuvchi belgilari quyidagi hodisalarning jamlanishi orqali namoyon bo'ladi:

- tizimning integrativlik xususiyatlari;
- tizimni hosil qiluvchi tarkibiy komponentlar;
- tuzilmaviy elementlar (komponentlar) o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar;
- tizimning kommunikativlik (atrof-muhit bilan aloqadorlik) xususiyatlari;
- tizimning tarixiyli va vorisiyligi.

Ekonometrika – iqtisodiy fanlar majmuasiga kiruvchi mustaqil fan bo'lib, uning o'rganish sohasi iqtisodiy jarayonlar va hodisalardagi miqdoriy jihatlar, ya'ni iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi ekonometrik modellar deb nomlanuvchi miqdoriy aloqadorliklarni o'z ichiga oladi.

Ekonometrik model, ya'ni parametrlari matematik statistika usullari yordamida baholanadigan omillar tahlilining iqtisodiy-matematik modeli ekonometrikani o'rganishning asosiy vositasi hisoblanadi. Mazkur modelga aniq iqtisodiy jarayonlarni mavjud statistik axborotlar asosida tahlil etish va bashorat qilishning muhim vositasi sifatida qarash qabul qilingan.

Ekonometrik modelda quyidagi tur o'zgaruvchilar qo'llaniladi: natija yaratuvchi (hosil qiluvchi) qaram, endogen o'zgaruvchi Y – qisman qayd etilish, boshqarilish va rejalashtirilish kabi xususiyatga ega bo'lib, o'zida iqtisodiy tizimdagi faoliyatning yakuniy natijasini va samaradorlik darajasini aks ettiradi. Erkin, ekzogen o'zgaruvchi X qayd etilish xossasi bilan tavsiflanadi va unda iqtisodiy tizimning mo'tadil faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar o'z aksini topadi. Erkin ekzogen o'zgaruvchilar ma'lum ma'noda qaram (natija hosil qiluvchi) o'zgaruvchilarning qiymatini aniqlab beradi. X -o'zgaruvchilarga ham qisman boshqariluvchanlik xos, ya'ni ularning faqat bir qismigina boshqariladi. Mazkur turdagi o'zgaruvchilarning ekzogen deb tavsiflanishiga sabab shuki, ularning qiymatini tahlil tashqarisidagi tizim belgilashi ham mumkin. X -o'zgaruvchilar faktorli alomatlar deb ham nomlanadi. Regressiv tahlilda erkin ekzogen X -o'zgaruvchilar – funksiya, natija hosil qiluvchi Y -o'zgaruvchilar esa bu funksiyaning argumenti sifatida ko'riladi. X -o'zgaruvchilar qisman tasodifiylik xususiyatiga ega, shuningdek, ular barqaror bo'lishlari ham mumkin.

Ekonometrik modeldagi o'zgaruvchilarning o'zaro bog'langanliklari miqdor jihatdan baholanishi maqsadga muvofiq va ishonchli natijalarni bashorat qilishga

zamin yaratadi. Biroq, qayd etish lozimki, bunday baholashda ma'lum darajadagi xatoliklar ehtimoli ham inkor etilmaydi.

Ekonometrik modellar mavjud amaliy jarayonlarning mohiyatini o'rganish va tushuntirishda muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Oydinlashtiruvchi (tushuntiruvchi) o'zgaruvchilarning aniqlangan qiymatlari asosida qurilgan hamda verifikatsiya qilingan model natija hosil qiluvchi qaram o'zgaruvchilardan foydalanish istiqbollarini bashorat qilishda yoki oydinlashtiruvchi (tushuntiruvchi) o'zgaruvchilarning qiymatlari to'plami qaram o'zgaruvchilarning vazifasini aniqlashtirishda qo'llaniladi.

Modellarning iqtisodiy tizimlarini bashorat va tahlil qilishda qo'llaniladigan uchta asosiy guruhini ajratib ko'rsatish mumkin:

- vaqtli qatorlar modeli;
- bir tenglamali regression modellar;
- bir vaqtdalik tenglamalar sistemasi.

Muvaqqat qatorlar modeli mohiyatan vaqtga natijaviy alomatlar orqali bog'langan modellar hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- o'sish egri chizig'i modellari
- trend modellar;
- tasodifiy modellar;

Bu turdagi modellar yordamida talabalar bashorat qilish bilan bog'liq, masalalarni hal etishlari mumkin bo'ladi.

Jarayon sifatida ekonometrik modellashtirish muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi. Mutaxassislar uni – shakllantirish, tahlillash, parametrlash, identifikatsiyalash hamda tasdiqlash kabi eng muhim bosqichlarga ajratadilar.

Shakllantirish bosqichida tadqiqotning maqsadlari va ekonometrik o'zgaruvchilar modelida ishtirok etuvchilar belgilab olinadi.

Tahlil qilish bosqichida o'rganilayotgan obyektning mohiyati, azaliy, ya'ni modellashtirish jarayoni boshlangunga qadar mavjud bo'lgan axborotlarning shakllanish jarayonining tahlili amalga oshiriladi, shuningdek, aprior axborotlar rasmiylashtiriladi.

Parametrlash bosqichida bevosita modellashtirish amalga oshiriladi, ya'ni modelning umumiy ko'rinishi tanlanib, uning tarkibidagi ichki aloqalar aniqlashtirib olinadi.

Axborotlar to'plash bosqichida kuzatilgan iqtisodiy o'zgaruvchilar qiymati va zarur bo'lgan statistik axborotlar yig'iladi. Iqtisodiy o'zgaruvchilarni kuzatish tadqiqotchining ishtiroki yoki ishtirokisiz ham amalga oshirilishi mumkin.

Identifikatsiyalash bosqichida model statistik tahlili va uning parametrlarini baholash amalga oshiriladi.

Tasdiqlash bosqichida modelning haqiqiyliги, asliga muvofiqlik darajasi tekshiriladi.

Dissertatsiyaning “**Ekonometrika o'qitishni tashkil etish yo'llari, metod va metodikalar tasnifi**” deb nomlangan ikkinchi bobida ekonometrik modellar, oliy ta'lim jarayonida ekonometrikani o'qitish modeli hamda ekonometrik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikalari bayon etilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonini optimallashtirish nazariyasiga ko'ra, ta'lim metodlarini maqbul tanlash mezonlariga muvofiq "Iqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha "talabalarning tayyorgarligi darajasi mazmuniga qo'yiladigan minimal malaka talablari" tahlili, "Ekonometrika" kursi bo'yicha mavjud ishchi dasturlar mazmuni, shuningdek, ushbu kurs uchun tayanch bo'lgan "Ehtimollar nazariyalari" va "Matematik statistika" kurslari, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar, shunga o'xshash mavzular bo'yicha dissertatsiya tadqiqotlari, ta'limga bag'ishlangan konferensiya materiallari yuzasidan tahlillar amalga oshirildi.

Talabalarda ekonometrik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida pedagogik modellashtirish usulidan foydalanishga qaror qildik. Mazkur model to'rtta blokdan iborat bo'lib, ular quyidagilardan iborat: maqsad bloki; tashkiliy-mazmuniy blok; baholovchi blok; natija bloki (2-rasm).

Mazkur modelning asosiy maqsadi "Talabalarda ekonometrik modellarning iqtisodiy jarayonlar tahlil etishda va prognozlashda tutgan o'rni, dolzarbligi va vazifalarini haqida tasavvurlarni tarkib toptirish asosida ekonometrik ko'nikmalarni shakllantirish" tarzida belgilab olindi.

Modelni tashkil etish maqsadidan kelib chiqib vazifalar belgilab olindi. Talabalarda ekonometrik kompetensiyalarni shakllantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsad qilindi:

ekonometrikaga doir omillarni tanlash, omillar orasidagi bog'lanish, korrelyatsion va regression bog'lanishlarni aniqlashtirishga o'rgatish;

ekonometrika ta'limi jarayonida juft-omilli va ko'p omilli korrelyatsion bog'lanishlar ustida ishlashga o'rgatish;

faoliyat davomida ekonometrik modellarni baholash, ekonometrik tahlil va prognoz qila olishga oid malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.

Tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi iqtisodiyot mutaxassisligi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga ekonometrikani o'qitishning samarali metodik tizimini ishlab chiqishdan iborat ekanligini nazarda tutgan holda, rejalashtirilgan natijaga ega bo'lishni ta'min etadigan asosiy metodologik yondashuv va tamoyillar yuqorida belgilab olingan edi.

Mazkur muammoning yechimi modulning tarkibiga borib taqaladi. Fikrimizcha, modullar tarkibiga yana bir modul ilova qilinishi zarur va u ehtimollar nazariyasi va matematik statistika sohasidagi bilimlarni, ekonometrikaga oid tayanch tushunchalar, ekonometrikaning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi, uning fan sohasi o'laroq e'tirof etilishi bosqichlariga oid elementlardan iborat bo'lishi lozim.

Buning natijasida quyidagi ko'rinishdagi modullarni tanlab olishimiz mumkin:


1-modul: ekonometrikaga kirish;

2-modul: juftlik regressiya va korrelyatsiya;

3-modul: ko'plik regressiyasi va korrelyatsiya;

4-modul: ekonometrik tenglamalar sistemasi;

5-modul: vaqtli qatorlar.



2-rasm. Talabalarga ekonometrikadan ta'lim berishning metodik tizimi modeli.

Modulli o‘qitish va ta’limda maqsad qo‘yishning faoliyatli yondashuvlari tamoyillaridan kelib chiqqan holda “har bir modul uchun umumlashtiruvchi didaktik maqsadlar va majmuaviy didaktik maqsad aniqlashtirib olindi”.

Ekonometrika fani mazmunini shakllantiruvchi tahsil birliklari DTS malaka talablari orqali belgilab beriladi. “Iqtisodda foydalaniladigan ekonometrik metodlar quyidagilar:

- ko‘plik regressiyaning chiziqli modeli;
- eng kichik kvadratlar usuli (EKU);
- eng kichik kvadratlar usulini baholash xususiyatlari;
- regressiya sifati ko‘rsatkichlari;
- geteroskedastik va avtokorrelyatsiyaviy qoldiqli chiziqli regression modellar;
- umumlashgan eng kichik kvadratlar usuli (UEKU);
- o‘zgaruvchan tuzilmali regression modellar (soxta o‘zgaruvchanlar);
- nochiziqli modellar va ularning chiziqilashtirilishi;
- vaqtli qatorlarning xossalari;
- stansionar va nostansionar muvaqqat qatorlar modeli, ularning identifikatsiyasi;
- bir vaqtlik chiziqli tenlamalar sistemasi va ularning identifikatsiyasi;
- bir vaqtlik tenglamalar sistemasining identifikatsiyasi”.

O‘quv kursini loyihalashtirishning modulli tamoyili didaktik modullar mazmun-mohiyatini har bir ixtisoslik bo‘yicha turlicha belgilangan o‘quv vaqtining miqdoridan kelib chiqqan holda turli variantlarda ishlab chiqish imkonini beradi. Texnologik modullar mundarijasining maqbullik darajasi esa moddiy-texnik baza va metodik ta’minotning mavjudligi bilan belgilanadi.

Ma’ruzada talabalar uchun ekonometrikaning tizimlashtirilgan bilimlar taqdim etiladi. Mazkur bilimlar talabalarning mustaqil shug‘ullanishlari uchun muhim baza vazifasini o‘tamog‘i lozim. Ma’ruza materiallarini an’anaviy tarzda yetkazish usulidan tashqari, ma’ruza o‘qishning turli xil faol usullari va shakllaridan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Jumladan:

talabalarga real hayotdagi qarama-qarshiliklarni modellashtirish orqali mustaqil bilim olishga imkon beradigan muammoli ma’ruzalar;

o‘quv materiali talaba bilan suhbat davomida unga beriladigan turkum savollardan iborat suhbat-ma’ruzalar;

talabalar o‘qituvchining bergan yo‘nalishidan foydalanib, o‘zlari muammo yaratadigan hamda mazkur muammoning yechimini topish uchun o‘zlari sharoit yaratishlariga asoslangan didaktik metodlar, jumladan, “hayotiy vaziyatlar”, “aqliy hujum” kabi metodlardan qo‘llaniladigan ma’ruzalar.

Amaliy mashg‘ulotlar, asosan, kursda o‘rganilishi ko‘zda tutilgan ma’lum bir mavzuni qamrab oladi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

maqbullashtirishning eng ilg‘or metodlaridagi miqdoriy qonuniyatlarni bashorat qilish va topish;

zarur hisoblashlarni amalga oshirish;

statistik asosga ega bo'lgan qaror chiqarish uchun zamin yaratadigan amaliy bilimlarni o'rgatish.


Qoidaga ko'ra, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda muammoli bayon hamda keys stade va SWOD tahlil metodlari qo'llaniladi. Misol uchun, mashg'ulotda "Chiziqli juftlik regressiya modelini baholash" mavzusi o'rganilayotgan bo'lsin: unda talabalarning o'quv-tadqiqot ishlari (TO'TI) savollaridan biri sifatida "determinatsiya koeffitsiyenti va chiziqli juftlik korrelyatsiya koeffitsiyenti kvadratining tengligi haqidagi tenglamani isbotlash talab qilingan topshiriqni kiritish o'rinli bo'ladi. Bajarilgan topshiriqning to'g'riligini tekshirish majburiy shart sifatida qaraladi.

Didaktik jarayonning motivatsiyaviy tashkil etuvchisini shakllantirish uchun ta'limning kompyuter texnologiyalaridan foydalanish kabi zamonaviy texnik vositalari hamda turli shakldagi ma'ruza va amaliy dars mashg'ulotlaridan foydalaniladi. Odatdagi ekonometrik masalalarni yechish kompyuter yordamida, masalan, Excel, Eviews, Stata dasturiy vositalarida oson amalga oshiriladi. Mazkur muammo auditoriyadan tashqari ish sifatida taqdim etiladi. Chunki:

birinchidan, ta'lim rejasida kompyuter bo'yicha amaliy dars o'tkazish uchun maxsus jihozlangan xona ko'zda tutilmagan;

ikkinchidan, agar talabalarga mazkur masalalarni yechishning aniq algoritmi taqdim etiladigan bo'lsa, bu ularning bilish faolligiga salbiy ta'sir etadi, bu hol soha bo'yicha bilim olish jarayonini "qadrsizlantiradi".

Modulli o'qitish texnologiyasi o'quv materialining muammoli modullarini guruhlash orqali ta'lim mundarijasini didaktik birliklarda umumlashtirish va tabaqalashtirishni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa o'quv materialini to'liq, chuqurlashtirilgan va qisqartirilgan variantlarda ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Qator tadqiqotchilar ta'limning turli standartlarini joriy etishni va bunda tegishli standartni tanlash talabning o'ziga havola etilishini taklif qiladilar. Taklif etilayotgan metodikada tabaqalashtirish shunday tartibda amalga oshirilishi lozimki, unda talaba "masala ichidagi masala"ni yechish orqali yaxlit masalani yechadi va bu bilan qisqartirilgan o'quv materialini o'zlashtirish natijasida chuqurlashtirilgan o'quv materialini o'zlashtirishga maromli ravishda o'ta boradi.



3-rasm. Talabalarda ekonometrik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasining tarkibiy tuzilmasi.

Mental xarita metodikasi ma'lumotlarni dastavval tasavvurda shakllantirish, so'ng esa uni diagramma yoki chizma holatida yaratish imkoniyatini beradi. Mental

xarita ijodiy fikrlashni rivojlantiradib, u ijodkorlik natijasidir. Shu sababdan biror qoida va rasmiyatchiliklarning keragi yo‘q. Mental xarita tuzishda bunda maqsad markazda joylashadi, vazifalar yoki resurslar, ya’ni tarkibiy qismlar uning atrofida tasvirlanadi.

“Keys-stadi” metodikasi. Mazkur metodika hayotiy vaziyatlarga doir aniq muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilganligi bilan muhimdir. Talabalar mashg‘ulot mavzusiga doir keyslarni hal etish davomida ekonometrik kompetensiyalarni ham egallay boshlaydilar.

SWOD-tahlil metodikasi. Mazkur metodika turli sohalarga doir muammolarni, vaziyatlarni yoki boshqa biror bir obyektini tahlil qilishga yordam berib, tahlil obyektining kuchli va kuchsiz tomonlari, undan foydalanish imkoniyatlari hamda tahdidini batafsil ochib beriladi. Natijada mazkur muammo yuzasidan aniq va to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyati tug‘iladi.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida ekonometrik kompetensiyalar ular bilan bog‘liq tushunchalar, ularning mazmun mohiyati, ularning dolzarbligi va zaruriyati haqida mulohazalar mavjud. Talabalarning ekonometrik bilimlarni egallashlari, bu ko‘nikmalarni hayot faoliyatida qo‘llay olish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun ekonometrik kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun nafaqat bo‘lajak iqtisodchilarda, balki har bir kasb egalarida ekonometrik kompetensiyalarning bo‘lishi zarurdir. Xususan, Amerika, Yaponiya o‘qitish tizimi tajribalaridan ma’lumki, ularda statistik bilim va ko‘nikmalar maktab davridanoq shakllantira boshlaydilar. Ular maktab darsliklarida statistik metodlarni fan sifatida o‘qitadilar. Aynan statistik bilimlar asosida ekonometrik tahlillar amalga oshiriladi. Ekonometrik bilimlarni rivojlantirish, talabalarda ekonometrik kompetensiyalarni shakllantirish uchun o‘qitish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi.

Talabalarda ekonometrik kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlar quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1-bosqich: Maqsadni aniqlashtirish va maqsad tomon yo‘naltirish.

2-bosqich: Vazifalarni taqsimlash va rejalashtirish.

3-bosqich: Maqsadni amalga oshirish natijaga erishish.

4-bosqich: Tahlil yoki muhokama qilish.

5-bosqich: Baholash

Topshiriqlarni bajargan talabalar o‘qituvchi tomonidan baholanadi. Agarda kichik guruhlar holatida vazifalar taqsimlangan bo‘lsa, g‘olib guruh a‘zolari rag‘batlantiriladi va baholanadi. Yakka tartibda topshiriqlar taqsimlanganda esa ekonometrik modelni tuzgan va ekonometrik tahlil qilgan talabalar baholanadilar.

Talabalarda ekonometrik kompetentlikni shakllantirish uchun dastur ishlab chiqildi. Mazkur dastur “Iqtisodiyot” va “Menejment” ta’lim yo‘nalishi talabalari o‘quv dasturlariga kiritilgan “Ekonometrika” fanini o‘qitish jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan va maqsadga muvofiqdir. “Ekonometrika” fani o‘quv dasturlariga kiritilgan ma’ruza, amaliy va mustaqil ta’lim uchun ajratilgan tadqiqot davomida tadqiq etilgan ekonometrik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi bilan muvofiqlashtirish maqsad etib olindi.

